

ZARAFSHON VOHASI QISHLOQ XO‘JALIGIDA SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISH MASALALARI (XX ASRNING 50–80-YILLARI)

Toshturov Shuxrat Eshonqulovich
Navoiy davlat universiteti, doktorant

Annotatsiya

Mazkur maqolada XX asrning 1950-80-yillarida O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish va paxta yetishtirish hajmini oshirish maqsadida yangi yerlarni o‘zlashtirishda Zarafshon vohasida (hozirgi Samarqand, Navoiy va Buxoro viloyati hududlari) Kattaqo‘rg‘on, Quyi mozor, To‘dako‘l suv omborlari va Amu-Buxoro kanali kabi yirik gidrotexnika inshootlari qurilishi iqtisodiy samara keltirishi bilan birga atrof-muhitga salbiy ta‘sir ko‘rsatganligi, bu davrda respublikada suvdan samarali foydalanilmaslik natijasida yer osti suvlari sathining ko‘tarilishi, tuproq sho‘rlanishi, suv resurslarining ifloslanishi kabi muammolarni paydo bo‘lishiga hamda vohada murakkab ekologik vaziyatning yuzaga kelishiga sabab bo‘lganligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Samarqand iqlim forumi, Zarafshon daryosi, Birinchi may to‘g‘oni, Kattaqo‘rg‘on suv ombori, Eski Angor kanali, Quyi mozor suv ombori, To‘dako‘l suv omborlari, Amu-Buxoro kanali, Hamza nasos stansiyasi, kollektor-drenaj tarmoqlari, suv resurslari ifloslanishi.

ПРОБЛЕМЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОДНЫХ РЕСУРСОВ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ ЗАРАФШАНСКОЙ ДОЛИНЫ (50–80-Е ГОДЫ XX ВЕКА)

Тоштуров Шухрат Эшонкулович
Навоийский государственный университет, докторант

Аннотация

В данной статье рассматривается, что в 1950–80-е годы XX века в Узбекистане, в целях развития сельского хозяйства и увеличения объёмов производства хлопка, освоение новых земель в Зарафшанской долине (на территории современных Самаркандской, Навоийской и Бухарской областей) сопровождалось строительством крупных гидротехнических сооружений, таких как Каттакурганское, Куйимазарское и Тудакульское водохранилища, а также Амударьинско-Бухарский канал. Отмечается, что, наряду с экономической эффективностью, данные проекты оказали негативное воздействие на окружающую среду. В частности, нерациональное использование водных ресурсов в этот период привело к повышению уровня грунтовых вод, засолению почв, загрязнению водных ресурсов, что, в свою очередь, стало причиной формирования сложной экологической ситуации в регионе.

Ключевые слова: Самаркандский климатический форум, река Зарафшан, плотина «Первое мая», Каттакурганское водохранилище, канал Эски Ангор, Куйимазарское водохранилище, Тудакульские водохранилища, Амударьинско-Бухарский канал, насосная станция «Хамза», коллекторно-дренажные сети, загрязнение водных ресурсов.

PROBLEMS OF WATER RESOURCE USE IN AGRICULTURE OF THE ZARAFSHAN VALLEY (1950S–1980S OF THE 20TH CENTURY)

Toshturov Shukhrat Eshonqulovich
Navoi State University, Doctoral Student

Abstract

This article examines that in the 1950s–1980s in Uzbekistan, in order to develop agriculture and increase cotton production, the освоение of new lands in the Zarafshan Valley (within the territories of present-day Samarkand, Navoi, and Bukhara regions) was accompanied

by the construction of major hydraulic engineering structures, such as the Kattakurgan, Kuyimazar, and Tudakul reservoirs, as well as the Amu-Bukhara Canal. It is noted that, along with economic benefits, these projects had a negative impact on the environment. In particular, the inefficient use of water resources during this period led to a rise in groundwater levels, soil salinization, and pollution of water resources, which in turn resulted in the emergence of a complex ecological situation in the region.

Keywords: Samarkand Climate Forum, Zarafshan River, “First of May” Dam, Kattakurgan Reservoir, Eski Angor Canal, Kuyimazar Reservoir, Tudakul Reservoirs, Amu-Bukhara Canal, “Hamza” Pumping Station, collector-drainage networks, water resource pollution

XXI asrga kelib dunyoning ayrim mintaqalari havo haroratining ko‘tarilishi, yog‘ingarchilik miqdorining kamayishi, tabiiy resurslar muvozanatining buzilishi va suv resurslarining qisqarishi kabi iqlim o‘zgarishlari bilan bog‘liq ekologik muammolarga duch kelmoqda. Shu sababli mazkur muammolarni ilmiy jihatdan tahlil qilish, oqibatlarini baholash va aniqlik chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Markaziy Osiyo mintaqasida iqlim o‘zgarishlari 2025-yil 4–5-aprel kunlari Samarqand shahrida bo‘lib o‘tgan I Samarqand iqlim forumida xalqaro ekspertlar va siyosatchilar tomonidan muhokama qilindi. Forumda qatnashgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev global iqlim o‘zgarishlarining mintaqaga ta‘siri xususida to‘xtalib, 2040-yilga borib Markaziy Osiyo mamlakatlari yuqori darajadagi suv taqchilligiga duch kelishi va bu, o‘z navbatida, og‘ir oqibatlarni keltirib chiqarishini ta‘kidladi [1]. Darhaqiqat, bugungi kunda O‘zbekiston suv taqchilligi yuqori darajada bo‘lgan dunyodagi 164 mamlakat orasida 25-o‘rinni egallamoqda. Mutaxassislarning hisob-kitobiga ko‘ra, O‘zbekistonda 2030-yilga borib toza ichimlik suvi tanqisligi 7 milliard m³ ga yetishi kutilmoqda va bu ko‘rsatkich hajm jihatidan Chorvoq suv omborining to‘rt baravariga to‘g‘ri keladi. Mazkur jarayon tobora murakkablashib borishi va 2050-yilga kelib suv taqchilligi yana ikki baravarga oshishi taxmin qilinmoqda [2]. Shu sababli mavjud suv resurslarini muhofaza qilish, ularni tejash va oqilona boshqarish davlat va jamiyat oldidagi muhim vazifalardan biriga aylandi.

XX asrning 50–80-yillarida respublikada yangi yerlarni o‘zlashtirish va paxta maydonlarining kengayishi, suvdan samarasiz foydalanish o‘z navbatida Orol fojeasi kabi ekologik halokatga olib keldi. Bu davrda Orolbo‘yi ekologik halokat zonasi ta‘siridagi Zarafshon vohasida sug‘orish inshootlarining barpo etilishi va mavjud suv resurslaridan samarasiz foydalanilishi ekologik muammolarni keltirib chiqarganini tarixiy nuqtayi nazardan tadqiq etish va xulosa chiqarish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Zarafshon vohasida sovetlar davrida paxta yetishtirish hajmini oshirish maqsadida yirik gidrotexnika inshootlarining ishga tushirilishi va yangi yerlarning o‘zlashtirilishi jarayonida suvdan samarali foydalanilmaslik natijasida mintaqada yer osti suvlari sathining ko‘tarilishi, tuproq sho‘rlanishi, suv resurslarining ifloslanishi kabi ekologik muammolarga olib kelganligi ayrim olimlarning tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. Xususan, M. Tagiyev tomonidan o‘tgan asrning 70-yillarida bajarilgan ilmiy tadqiqot ishida Markaziy Osiyoning qadimgi dehqonchilik vohalaridan biri bo‘lgan Zarafshon vohasida qo‘riq yerlarni o‘zlashtirish va paxta yetishtirish hajmini ko‘paytirish uchun yirik gidrotexnika inshootlari qurilishi tarixi yoritiladi [3]. Sovetlar davri hukmron mafkurasi ta‘sirida amalga oshirilgan mazkur ilmiy ishda masalaga bir tomonlama yondashilib, vohada sug‘orish inshootlari qurilishi paxta yetishtirishning ko‘payishiga olib kelganligi yoritiladi, biroq uning atrof-muhitga salbiy ta‘siri xususida to‘xtalinmagan. XX asr 80-yillari ikkinchi yarmidagi oshkoralik siyosati sababli respublikadagi ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik muammolar davriy matbuot va turli nashrlarda ochiq yoritila boshlandi. Shu davrda yaratilgan T. Alimovning risolasida sovetlar davrida qishloq xo‘jaligi sohasida erishilgan iqtisodiy yutuqlar ekologik o‘zgarish va yo‘qotishlarga olib kelganligi, respublikada kimyolashtirish oqibatida ochiq suv havzalari, xususan, Zarafshon daryosida ham og‘ir ekologik vaziyat yuzaga kelganligi bayon

qilinadi [4]. N. Oblomurodovning “O‘zbekistonda agrar siyosat (1970–1990-yillar)” mavzusidagi monografik tadqiqotida esa sovet hukumati davrida respublikada gidrotexnika inshootlari qurilishi natijasida paxta ekiladigan maydonlar hajmi kengayib borganligi, paxta yakkahokimligi o‘z navbatida og‘ir ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik vaziyatni yuzaga keltirganligi ilmiy dalillar bilan tahlil qilinadi [5].

XX asrning 50–80-yillarida Zarafshon vohasida sug‘orish inshootlari qurilishi va suv resurslaridan foydalanish jarayonida ekologik muammolarning yuzaga kelishi masalalari analiz va sintez, tizimlilik, mantiqiylik, kompleks yondashuv hamda qiyosiy tahlil kabi ilmiy tadqiqot usullari asosida o‘rganildi.

Sovetlar davrida O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish hamda paxta maydonlarini kengaytirishga alohida e‘tibor qaratildi. Bu esa respublikada keng ko‘lamli irrigatsiya va melioratsiya tadbirlarini amalga oshirish zaruriyatini yuzaga keltirdi. Natijada 1950–80-yillar oralig‘ida O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga ajratilgan kapital qo‘yilmalarda irrigatsiya va melioratsiya tadbirlari uchun mablag‘lar miqdori oshib bordi. Masalan, 1955–1960-yillarda qishloq xo‘jaligi sohasiga ajratilgan 1729 mln so‘m kapital mablag‘ning 459 mln so‘mi suv xo‘jaligi inshootlari qurilishiga yo‘naltirilgan bo‘lsa, 1971–1975-yillarda umumiy 9296 mln so‘m kapital qo‘yilmalarning yarmidan ko‘pi, ya‘ni 5428 mln so‘mi, 1981–1985-yillarda esa ajratilgan 14877 mln so‘mning 7726 mln so‘mi melioratsiya tadbirlari uchun ajratildi. Birgina 1987-yilda qishloq xo‘jaligi uchun ajratilgan 2767 mln so‘mning 1393 mln so‘mi to‘g‘ridan to‘g‘ri suv xo‘jaligi inshootlari qurilishiga yo‘naltirildi [6]. Natijada karrasiga ko‘paygan paxta maydonlari sug‘orish ehtiyojlari uchun daryolarda o‘nlab suv omborlarining qurilishi oqibatida respublikada, qolaversa, Markaziy Osiyo mintaqasida ekologik halokat yuzaga keldi.

Sug‘orma dehqonchilik an‘analari bir necha ming yillik tarixga ega bo‘lgan Zarafshon vohasida mavjud yer zaxiralari imkoniyatlaridan to‘la foydalanish suv resurslari ozligi tufayli cheklangan edi. Zarafshon daryosi suvining bahorda ko‘payishi, yoz oylarida esa keskin kamayib ketishi vohadagi ekin dalalarining suv bilan ta‘minlanishini murakkablashtirar edi. Shu sababli respublikada sovet hokimiyatining dastlabki yillaridan Zarafshon daryosi suvini boshqarish, vohadagi qo‘riq yerlarni o‘zlashtirish va qishloq xo‘jaligini rivojlantirish orqali paxta maydonlarini kengaytirish dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Ushbu maqsadda 1929-yil 1-may kuni umumiy uzunligi 223 metr bo‘lgan, Zarafshon daryosi suvini boshqaradigan to‘g‘on ishga tushirildi va unga Birinchi May (Pervomaysk) nomi berildi. Shuni ta‘kidlash kerakki, ushbu to‘g‘on birinchi besh yillikda (1928–1932-yillar) SSSR tomonidan Markaziy Osiyoda qurilgan birinchi eng yirik gidrotexnika inshooti edi [7].

Sovetlar davrida respublikada mavjud daryolar suvini boshqarish va suv kam bo‘lgan hududlarni doimiy suv bilan ta‘minlash maqsadida suv omborlari qurildi. Bu davrda Zarafshon vohasida qurilgan eng yirik suv inshootlaridan biri Kattaqo‘rg‘on suv ombori bo‘lib, uning ishga tushirilishi Zarafshon daryosi suv resurslarini tartibga solish, qishloq xo‘jaligi yerlarini uzluksiz suv bilan ta‘minlash va yangi yerlarni o‘zlashtirish orqali paxta maydonlarini kengaytirish imkonini berdi. O‘zbekiston irrigatsiya inshootlari qurilishi tarixiga nazar solinsa, respublikada 1940-yilgacha suv ombori mavjud emas edi. Kattaqo‘rg‘on suv ombori Zarafshon daryosi oqimida qurilgan respublikadagi birinchi suv ombori bo‘ldi [8]. Ushbu yirik suv inshooti qurilishi 1939-yil 22-dekabrda SSSR Xalq Komissarlari Soveti va KP(b) Markaziy Komitetining “O‘zbekistonda paxtachilikni yanada yuksaltirish choralari to‘g‘risida”gi qarorida belgilandi. Unga ko‘ra, suv ombori qurilishi Zarafshon vohasida dastlab 65 ming gektar yangi yerlarni o‘zlashtirish orqali respublikada yetishtiriladigan paxta hosilini ko‘paytirishi zarurligi ta‘kidlab o‘tildi [9]. Kattaqo‘rg‘on suv ombori loyihasi O‘rta Osiyo suv xo‘jaligi inshootlarini loyihalash ilmiy-loyiha instituti (“Sazgiprovodxoz”) bosh muhandisi N. Borodinskiy rahbarligida ishlab chiqilib, uch bosqichda qurilishi belgilandi [10]. Rejaga ko‘ra, mazkur suv ombori qurilishi 1940-yil 1-mart kuni boshlanishi ko‘zda tutilgan bo‘lsa-da, muddatidan 5 kun oldin, ya‘ni 25-fevralda

ishga kirishildi. 1940-yil 29-fevralda vohadagi eng yirik suv inshooti qurilishi bo'yicha Kattaqo'rg'on pedagogika bilim yurti klubida bo'lib o'tgan yig'ilishda ishtirok etgan O'zbekiston KP(b) kotibi U. Yusupov qurilishni belgilangan muddatdan, ya'ni 1942-yildan oldin tugatishga da'vat qildi. Shu tariqa Kattaqo'rg'on suv omborining birinchi bosqichi ota-bobolarimizning mashaqqatli qo'l mehnati asosida muddatidan oldin, 1941-yil 5-avgustda ishga tushirildi [11]. Ikkinchi jahon urushi qurilishni vaqtincha to'xtatdi. Urushdan keyin qayta boshlangan qurilishning ikkinchi navbati 1952-yilda tugallanishi natijasida suv ombori 668 mln m³ suvni qabul qilish imkoniyatiga ega bo'ldi hamda vohadagi sug'oriladigan yer maydonini 67 ming gektarga ko'paytirdi [12]. Umuman olganda, 1940–1950-yillar Samarqand vohasi suv inshootlari qurilishi tarixida “katta suv” uchun kurashish davri bo'ldi. 1954–1955-yillarda Zarafshon daryosi suvi bilan Qashqadaryo vohasining qo'riq yerlarini sug'oruvchi Eski Angor kanali qurilishi Samarqand vohasining chap qirg'og'ida 10 ming gektar yangi yerlarni o'zlashtirish imkonini berdi [13].

Bu davrda Zarafshon vohasining quyi havzasida joylashgan Buxoro viloyatida ham yangi yerlarni o'zlashtirish, mavjud qishloq xo'jaligi maydonlarini doimiy suv bilan ta'minlash orqali paxta maydonlarini kengaytirishga alohida e'tibor qaratildi. Shu maqsadda 1954-yil 6-noyabrda O'zbekiston SSR Suv xo'jaligi vazirining “Quyimozor va To'dako'l suv omborlari qurilishini yakunlash to'g'risida”gi 465-sonli buyrug'i qabul qilindi. Unga ko'ra, 274 mln m³ suv to'plash quvvatiga ega Quyimozor suv omborini qurish va uni 1955-yil 1-dekabrda ishga tushirish [14], 1954-yil 1-noyabrda hajmi 875 mln m³ bo'lgan To'dako'l suv ombori qurilishini boshlash va 1955-yilda tugatish belgilandi [15]. Shu tariqa Zarafshon vohasida XX asrning 50-yillarida barpo etilgan irrigatsiya inshootlari Zarafshon daryosi suvlari hisobidan Samarqand va Buxoro viloyatlarida 500 ming gektardan ortiq yer maydonlarini sug'orish imkonini berdi. 1-May to'g'oni, Damxo'ja, Xarhur, Shofirkon va boshqa yirik gidrouzellar, Zarafshon daryosi oqimini tartibga solish uchun Kattaqo'rg'on, Quyimozor kabi suv omborlarining qurilishi mavjud sug'oriladigan yerlarning suv bilan ta'minlanganlik darajasini yaxshilashga olib keldi.

Zarafshon vohasida yangi yerlarni o'zlashtirish uchun irrigatsiya va melioratsiya inshootlari qurish 60–70-yillarda ham shiddat bilan davom ettirildi. Mazkur siyosat SSSR KPSS Markaziy Komiteti rahbariyati tomonidan O'rta Osiyoda va birinchi galda O'zbekistonda melioratsiya qilinadigan yer maydonlarini kengaytirish, mamlakat uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan paxta yetishtirishni ko'paytirish imkonini berdi. Bu davrda Amu-Buxoro kanalining qurilishi Buxoro viloyatida qo'shimcha 73 ming gektar yerni Amudaryo suvi bilan sug'orishga, Zarafshon daryosining ortib qolgan suvi hisobidan esa Buxoro, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarida yerlarni to'liq sug'orish va qo'shimcha 15,5 ming gektar yangi yerlarni o'zlashtirish imkonini berdi [16]. 1967-yilda Kattaqo'rg'on suv omborining uchinchi bosqichi tugallanishi natijasida uning suv qabul qilish hajmi 1 mlrd m³ ga yetkazildi [17].

O'zbekistonda Amudaryo suvini Buxoro viloyati va uning atrof hududlariga yetkazib berish maqsadida qurilgan eng yirik irrigatsiya inshootlari bo'lgan Amu-Qorako'l va Amu-Buxoro kanallari Buxoro hamda uning atrofidagi hududlarni suv bilan ta'minlagan holda qishloq xo'jaligi va iqtisodiyot taraqqiyotida hal qiluvchi rol o'ynadi. Mazkur gidrotexnika inshootlari qurilishi tarixi o'tgan asrning 60-yillariga borib taqaladi. Zarafshon vohasida qishloq xo'jaligi ekinlari vegetatsiyasi davrida sug'oriladigan maydonlarning 30–35 foizi suv bilan ta'minlanmaganligi sababli Amu-Qorako'l va Amu-Buxoro mashina kanallari barpo etildi [18]. 1960-yillargacha Zarafshon daryosi quyi qismi, jumladan, Buxoro viloyatining Qorako'l tumanida suv tanqisligining oldini olish maqsadida Amudaryodan suv yo'naltirish masalasi ilgari surilgan. “Uzgiprovodxoz” instituti loyihasi asosida 1963-yilda qurilgan Amu-Qorako'l kanali Amudaryo suvini nasos stansiyasi yordamida 8 metr ga ko'tarish orqali Qorako'l tumanida 40 ming gektar yerni sug'orish imkonini yaratdi. Ushbu loyihaning muvaffaqiyatli yakunlanishi Amudaryo suvini Buxoro viloyatining markaziy mintaqalariga yo'naltirish bo'yicha yangi loyihani ishlab chiqish va amalga oshirish g'oyalari yuzaga keltirdi. Loyihaga ko'ra, Amudaryo suvini 68 metr

balandlikka ko'tarish, ya'ni 48 metr balandlikka chiqaruvchi Hamza va 20 metrga ko'taradigan Quyimozor nasos stansiyalari orqali Amu-Buxoro kanaliga tashlash ko'zda tutildi [19]. O'zbekiston SSR KP MQ va Ministrlar Sovetining 1963-yil 26-noyabrdagi 184-sonli qarorida Amu-Buxoro kanali qurilishi muhim ahamiyatga ega obyekt ekanligi ta'kidlandi va qurilishga kirishildi [20]. 1966-yilda foydalanishga topshirilgan mazkur kanalga KPSS XXIII syezdi nomi berildi. Amudaryo suvini Zarafshon daryosiga yo'naltirish natijasida Buxoro viloyati Qorako'l tumanida 27 ming gektar va Buxoro tumanida 91 ming gektar yerlarning sug'orilishi yaxshilandi, Buxoro va Samarqand viloyatlarida qariyb 400 ming gektar yerlarning Zarafshon daryosi suvi bilan ta'minlanishi 80 foizgacha oshdi. Shuningdek, Zarafshon daryosidan iqtisod qilingan suvlar hisobidan Buxoro viloyatining Navoiy tumani va Samarqand viloyatining qator tumanlarida qo'shimcha 50 ming gektar yangi yerlarni o'zlashtirish imkoniyati yaratildi [21].

1968-yil 10-fevralda O'zbekiston SSR KP Markaziy Qo'mitasi va Ministrlar Soveti tomonidan "Amu-Buxoro mashina kanali ikkinchi navbatini qurish to'g'risida"gi 65-sonli qaror qabul qilinib, 1969-yilda Amu-Buxoro kanalining ikkinchi navbatini qurish boshlanishi belgilandi [22]. 1975-yil 27-martda O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti Davlat komissiyasi tomonidan Amu-Buxoro mashina kanali foydalanishga qabul qilindi [23]. Uzunligi 234 km bo'lgan Amu-Buxoro kanalining ikkinchi navbati qurilishi Buxoro viloyatining G'ijduvon, Shofirkon va Vobkent tumanlarida 73 ming gektar yerning Amudaryo suvi bilan sug'orilishiga, shu bilan birga Zarafshon vohasida 370 ming gektar, Qashqadaryo viloyatida esa 20 ming gektar yerning suv bilan ta'minlanganlik darajasi yaxshilanishiga olib keldi [24]. Shu tariqa keng ko'lamdagi irrigatsiya inshootlari qurilishi tadbirlari natijasida O'zbekistonda sug'oriladigan maydonlar hajmi XX asrning 60-yillari oxiriga kelib asr boshi bilan taqqoslanganda qariyb 2 baravarga o'sdi va 1968-yilga kelib 2 638 ming gektarga yetdi (1913-yil — 1339 ming ga, 1945-yil — 2030 ming ga, 1950-yil — 2200 ming ga, 1960-yil — 2474 ming ga, 1965-yil — 2508 ming ga) [25]. Shu tariqa Buxoro viloyatidagi yerlarni sug'orish uchun Quyimozor suv ombori, Amu-Qorako'l va Amu-Buxoro mashina kanali kabi yirik sug'orish inshootlari hamda 23 ta magistral kanal yordamida taqsimlanishi natijasida viloyatning asosiy muammosi — suv ta'minoti masalasi hal qilindi va 215 ming gektarga yaqin yerlarni o'zlashtirish imkonini berdi [26]. Respublikada 1950–80-yillarda olib borilgan keng ko'lamdagi irrigatsiya inshootlarini barpo etish natijasida sug'oriladigan yer maydonlari hajmi 1950-yildagi 2 276 ming gektardan 1987-yilda 4 109 ming gektarga yetdi [27]. Yangi yerlarni o'zlashtirish hisobiga respublikada paxta yetishtirish keskin ko'paydi. Agar 1960-yilda 2949 ming tonna paxta yetishtirilgan bo'lsa, 1965-yilga kelib bu ko'rsatkich 3904 ming tonnani tashkil qildi yoki 933 ming tonnaga ko'paydi. Respublikada Ikkinchi jahon urushidan keyingi 20 yilda paxta yetishtirish hajmi 1946-yil bilan taqqoslanganda 3,5 marta, 1940-yil bilan solishtirganda esa 2,8 martaga ko'paydi [28]. Zarafshon vohasida paxta yetishtirish hajmi ortib, 1965–1968-yillar davomida o'rtacha yillik paxta xomashyosi miqdori Samarqand viloyatida 385 ming tonnani, ya'ni 59 ming tonna o'sishni, Buxoro viloyatida esa 349 ming tonnani, ya'ni 81 ming tonna o'sishni tashkil etdi. Jami hosil 734 ming tonnaga, qo'shimcha mahsulot yetishtirish hajmi esa 140 ming tonnaga yetdi [29].

XX asrning 60–80-yillarida respublikada suv resurslarini yig'ish, saqlash, yetkazish, taqsimlash va ortiqchasini chiqarishga xizmat qiladigan turli xil hajm va uzunlikdagi minglab kilometr irrigatsiya inshootlari barpo etildi. Umuman olganda, Zarafshon vohasida suv inshootlari qurilishi iqtisodiy jihatdan foydali bo'lsa-da, melioratsiya tadbirlarining samarali tashkil etilmaganligi o'z navbatida tuproq sho'rlanishi, ekotizimning buzilishi kabi jiddiy ekologik muammolarni keltirib chiqardi. Buxoro viloyati xalq deputatlari ijroiya qo'mitasining 1961-yil aprel oyidagi yig'ilishida viloyatda sug'orish tizimlaridan noto'g'ri foydalanish yerlarning meliorativ holati yomonlashishi, botqoqlashish va sho'rlanish jarayonlari kuchayishiga olib kelganligi ta'kidlanadi [30]. Tuproq sho'rlanishining oldini olish, yer osti suvlari sathini pasaytirish va tuproqning meliorativ holatini yaxshilash orqali qishloq xo'jaligi hosildorligini oshirishga xizmat qilgan kollektor-drenaj tarmoqlarining ahamiyati katta bo'lib, ularni o'z vaqtida

tozalab turish samaradorlikning oshishiga xizmat qiladi. Biroq Buxoro viloyatida bu boradagi ishlar qoniqarsiz holatda bo'lib, 1970-yillarning o'rtalarida mavjud kollektor-drenaj tarmoqlarining 28 foizi, sug'orish tarmoqlarining esa 82 foizi tozalangan edi [31]. Navoiy viloyatida esa 80-yillarning o'rtalariga kelib sug'oriladigan ekin maydonlarining kollektor-drenaj tizimi bilan ta'minlanganlik holati me'yordan qariyb ikki barobar kam bo'lib, ya'ni 17,5 pogonometrni tashkil qilgan, me'yor bo'yicha esa 30–35 pogonometr bo'lishi lozim edi. 24,4 ming gektar maydonlarda kollektor-drenaj tizimi mavjud emas edi, mavjud sug'orish tarmoqlarining esa atigi 10,3 foizi betonlashtirilgan edi [32]. 1960-yillarning o'rtalarida respublika xo'jaliklarida 3179,1 ming gektar maydonda sug'orish tarmoqlari mavjud bo'lib, shundan Samarqand viloyatida 375,9 ming gektar, Buxoro viloyatida esa 277,1 ming gektarni tashkil qilgan [33]. Navoiy viloyatida 1980-yillarning oxiriga kelib Zarafshon daryosini qo'shib hisoblaganda xo'jaliklararo kanallar uzunligi 1419,05 km ni tashkil qilgan, uning 701,8 km ini kollektor-drenaj tarmoqlari tashkil etgan [34]. 80-yillarning oxiriga kelib O'zbekistonda 4 million gektardan ortiq maydonni qamrab olgan gidromeliorativ tarmoqning texnik holati eskirishi natijasida olingan suvning taxminan yarmi kanallar orqali filtratsiya va ichki sug'orish tarmog'idan oqib ketdi [35]. Zarafshon vohasida qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orish uchun barpo etilgan kanallar va kollektor-drenaj tarmoqlaridan samarali foydalanmaslik, o'z navbatida, suv resurslarining ifloslanishi va isrofgarchiligiga olib keldi.

Respublikada yangi yerlarni o'zlashtirish siyosati va paxta yetishtirish hajmining o'sib borishi o'z navbatida suv resurslari sarfining ortishiga olib keldi. Masalan, 1969-yilda O'zbekiston SSRda yillik suv iste'moli hajmi 48 mlrd m³ ni tashkil qilib, uning 42,7 mlrd m³ yoki 89 foizi qishloq xo'jaligi ehtiyoji uchun, 5,1 mlrd m³ esa sanoat va xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlariga sarflandi [36]. 1970-yilga kelib respublika yillik suv iste'moli hajmi 52,7 mlrd m³ ni tashkil etib, umumiy suv hajmining 90,02 foizi qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun ishlatildi [37]. Respublikada suv sarfi yildan yilga o'sib bordi va uning asosiy qismi qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishga, aniqrog'i, paxtaga sarflandi. 1981-yilda respublikada ishlatilgan 65,2 mlrd m³ suvning 58,4 mlrd m³ qishloq xo'jaligi ehtiyojlariga sarflangan [38]. Respublika xalq xo'jaligi ehtiyojlari uchun 1987-yilda 59,4 mlrd m³, 1988-yilda 62,2 mlrd m³, 1989-yilda esa 57,0 mlrd m³ suv ishlatildi [39]. 1990-yilga kelib respublikada xalq xo'jaligi ehtiyojlari uchun rekord darajada 68,0 km³ suv sarflanib, uning 58,5 km³ qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orish uchun ishlatildi [40]. Umuman olganda, 80-yillarning oxirlariga kelib respublikada 3,9 mln gektar ekin maydonini sug'orish uchun 900 ta sug'orish tizimi, 46 ta katta va kichik suv ombori, o'nlab gidrotexnik inshootlar, umumiy uzunligi 2 ming km dan ortiq bo'lgan 34 ta yirik kanal orqali qariyb 60 mlrd m³ suv ishlatildi [41]. Respublikada suv resurslaridan foydalanish hajmining yildan yilga ortib borishi natijasida sug'oriladigan maydonlarda ishlatiladigan o'rtacha suv sarfi me'yordan oshib ketishiga olib keldi, me'yor bo'yicha bu ko'rsatkich 7–10 ming m³ bo'lishi kerak edi. Masalan, Markaziy Osiyo respublikalarida 1985-yilga kelib 1 gektar sug'oriladigan maydonga o'rtacha 16 ming m³ suv sarflangan bo'lib, Turkmanistonda 20 ming, Qozog'istonning janubida 17,5 ming, O'zbekistonda 15 ming, Tojikistonda esa 14,5 ming m³ ni tashkil qilgan [42]. 1990-yilga kelib O'zbekistonda o'rtacha suv sarfi 13,8 ming m³ ni tashkil etdi [43].

Shu tariqa, 1960–1985-yillarda daryolar oqimini tartibga solish bo'yicha olib borilgan irrigatsion tadbirlar natijasida respublikalararo 5 ta, respublika ahamiyatidagi 51 ta suv ombori qurildi va ularda to'planadigan suv hajmi 14,5 mlrd m³ ni tashkil etdi. Mazkur suv omborlari qurilishida kompleks yondashuv bo'lmadi, olimlar va mutaxassislarining tabiiy sharoit buzilishiga olib kelishi to'g'risidagi ilmiy xulosalari hisobga olinmadi. Yuqoridagi omillar natijasida respublikadagi iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik vaziyat keskinlashdi. Suv omborlari qurilishi bilan yuzlab qishloq va aholi yashash manzilgohlari joylashgan o'n minglab gektar unumdor yerlar suv ostida qoldi. Suv omborlaridan har yili 5 mlrd m³ dan ortiq suvning bug'lanib ketishiga olib keldi. Eng tashvishlanarlisi, suv omborlaridan dalalarga oqadigan tingan suv iqlim sharoitini salbiy tomonga o'zgartirdi, tuproq eroziyasini kuchaytirdi, foydali mavjudotlarni halok qildi, minglab

gektar serhosil yerlarni oriqlatib yubordi [44].

Sovet hukumati tomonidan yangi yerlarni o'zlashtirish va paxta maydonlarini kengaytirishda nafaqat respublikadagi katta va kichik daryolardan, balki yer osti suvlaridan ham samarasiz foydalanildi. Zarafshon daryosi suvining yildan yilga kamayib borishi mavjud qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orishda yer osti suvlaridan tobora ko'proq foydalanishga olib keldi. Birgina 1965-yilda vohadagi yer osti suvlari hisobidan quduqlar orqali 61 mln m³ suv chiqarilib, 7 ming gektar ekin maydoni sug'orildi [45]. Respublikada 1968-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, turli tashkilotlar tomonidan 9047 ta quduq kavlanib, eng ko'pi Farg'ona (1997 ta) va Toshkent (1438 ta) viloyatlarida bo'lgan bo'lsa, Zarafshon vohasining Samarqand viloyatida 960 ta, Buxoro viloyatida esa 1242 ta yer osti suvlaridan foydalanish maqsadida quduq ishga tushirildi [46]. 1960-yillarning oxiriga kelib respublika cho'l zonalarida mavjud 15 ta yer osti suv havzasida 1000 ga yaqin quduq kavlanib, 23 mln gektar yaylov va 4,5 mln gektar qo'riq maydon sug'orildi. Mazkur jarayonda quduqlarga suv sarfini nazorat qiluvchi qurilmalar qo'yilmaganligi katta miqdorda suvning isrof bo'lishiga olib keldi [47]. XX asrning 70-yillaridan respublikada yer osti suvlaridan oqilona foydalanish, ularni isrof qilmaslik masalalariga e'tibor berila boshlandi. Masalan, O'zbekiston Tabiatni muhofaza qilish jamiyati respublika kengashining 1970-yil 15-dekabrda VI plenumi yig'ilishida Samarqand va Buxoro viloyatlarida yer osti suvlaridan foydalanishning ahvoli qoniqsiz ekanligi ta'kidlanib, mas'ullarga chora-tadbirlar ishlab chiqish bo'yicha topshiriqlar berildi [48]. 1971-yilda Samarqand viloyatida yer osti suvlaridan oqilona foydalanilmaganligi sababli mavjud 2360 ta quduqning 1495 tasi ishlatilgan bo'lsa, qolganlari qarovsiz holatda qolgan va bu, o'z navbatida, suvning behuda isrof bo'lishiga sabab bo'lgan [49]. Buxoro viloyatida 1970-yillarda ariq-kanallar oqimining o'zgartirilishi, sug'oriladigan yerlardan sho'r drenaj suvlari tashlanishi hisobiga suv ifloslandi. Ularning yer osti suvlariga qo'shilishi aholi ichimlik suvi ta'minotida yer osti suvlaridan markazlashgan usulda foydalanishni yaroqsiz holatga keltirdi [50].

1980-yillarning ikkinchi yarmida respublikada aniqlangan 170 dan ortiq yer osti suvlari konlari asosida taxminan 90 ta shahar, 122 ta tuman markazi va yer usti suvi kam bo'lgan hududlardagi qishloq aholisining yarmini qamrab olgan suv ta'minoti tizimi tashkil qilingan. Suv resurslari yildan yilga yetishmayotgan sharoitda respublikadagi mas'ul tashkilotlar tomonidan yer osti suvlari zaxirasidan maksimal darajada samarali foydalanishga yetarli ahamiyat berilmadi. Bu davrda respublikada mavjud 33258 ta quduqning 66,6 foizi faol, 23,4 foizi ta'mirga muhtoj va 10 foizdan ortig'i qarovsiz holatda bo'lib, ulardan yiliga 20 mln m³ yer osti suvlari bekorga oqib ketdi [51].

Respublikada yer osti suvlaridan hisobsiz foydalanish bilan birga, xalq xo'jaligida hosil bo'lgan turli oqova suvlar ta'sirida ularning ifloslanishi ham kuchaydi. Masalan, 1980-yillarga kelib respublikada yiliga 300 mln m³ ifloslangan oqova suvlar ochiq suv havzalariga tashlanishi oqibatida Zarafshon, Chirchiq, Ohangaron daryolari vohalari va Farg'ona vodiysi tumanlarida yer osti suvlarining juda yuqori darajada ifloslanishiga sabab bo'ldi [52]. Respublika yer osti suvlarining eng xavfli ifloslantiruvchi manbasi bo'lgan qishloq xo'jaligi oqovalari hajmi yiliga 18–20 km³ ni, ya'ni yillik oqimning 30–35 foizini tashkil qilib, ularning tarkibida tuzlar, turli zaharli kimyoviy moddalar, o'g'itlar mavjud bo'lib, ayrim daryo havzalarida DDT, GXSG va boshqa zaharli moddalar miqdori me'yordan bir necha marotaba yuqori edi [53]. Suv resurslarini ifloslantiruvchi asosiy manba sug'oriladigan yerlardan chiqadigan yuqori minerallashtirilgan oqova suvlar bo'lib, birgina 1985-yilda respublikadagi kollektor-drenaj tarmoqlarida taxminan 60 million tonna tuz hosil bo'ldi [54]. Bu davrda respublikadagi daryo, ko'l va quduqlardagi suvlar D. Mendeleev davriy tizimidagi 80 xildagi elementlar bilan zaharlangan edi [55]. Yuqoridagi omillar Zarafshon vohasining quyi oqimida joylashgan hududlarda yer osti suvlarining iste'molga yaroqsiz holatga kelishiga sabab bo'ldi. Suvni ifloslantiruvchi moddalar tarkibi neft, fenollar, pestitsidlar, murakkab kimyoviy birikmalar, rangli metallar va boshqalardan iborat bo'lib, neft yutuvchi sintetik moddalar va pestitsidlar ayniqsa katta xavf tug'dirdi. Ifloslangan suvlar

tarkibining 40 foizini mineral, 60 foizgacha miqdorini esa organik moddalar tashkil qildi [56]. Sug'oriladigan yer maydonlarining o'sishi, sanoatning rivojlanishi va uning tarmoqlari takomillashishi hamda aholi sonining ko'payishi, suv omborlari kabi yirik irrigatsiya inshootlarining qurilishi tabiiy rejimga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. 1960–1980-yillarda respublikadagi asosiy suv manbalarida suvning minerallashuvi oshdi, sanoat va kommunal-maxsus oqimlar, pestitsidlar va mineral o'g'itlar tufayli suvning ifloslanishi kuchaydi.

Xulosa qilib aytganda, butun Markaziy Osiyo mintaqasida kuzatilayotgan ekologik inqirozning paydo bo'lishiga sovet hukumati tomonidan XX asrning 50–80-yillarida mavjud suv resurslaridan samarali foydalanmaslik siyosati sabab bo'ldi va bu, o'z navbatida, Orol fojeasi kabi global ekologik inqirozni yuzaga keltirdi. Butun respublikada bo'lgani kabi, Zarafshon vohasi viloyatlarida ham keng ko'lamda irrigatsiya inshootlari qurilishi, yangi yerlarni o'zlashtirish, paxta maydonlarini kengaytirish siyosati pirovard natijada mintaqada og'ir ekologik vaziyatni vujudga keltirdi. Suv resurslaridan samarasiz foydalanish vohada tuproq sho'rlanishi va yer osti suvlari sathining ko'tarilishiga olib keldi. Yuqori darajada minerallashgan, turli kimyoviy moddalar bilan to'yingan qishloq xo'jaligi va sanoat oqovalarining tozalanmasdan to'g'ridan to'g'ri ochiq suv havzalariga tashlanishi natijasida yer usti va osti suvlarining biologik hamda kimyoviy tarkibi qoniqarsiz holatga kelib qoldi, keskin darajada ifloslandi. Bu davrda ichimlik suvi va markazlashgan suv ta'minoti tizimining qoniqarsiz holati Zarafshon vohasining quyi havzasida yashovchi aholini daryo, kanal yoki ariq kabi ochiq suv havzalarining turli darajada ifloslangan suvini iste'mol uchun ishlatishga majbur qildi. Bu esa, o'z navbatida, voha aholisi o'rtasida turli yuqumli kasalliklarning keng tarqalishiga va og'ir ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlariga olib keldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Samarqand xalqaro iqlim forumidagi nutqi // Yangi O'zbekiston, 2025 yil 5 aprel № 70 (1396), -B.3.
2. Karshiev, R. Eshev, S. Makhmudov, Kh. Makhmudov, U. Eshev, A. Hazratov, A. (2025). Water balance of the Republic of Uzbekistan under conditions of water scarcity. Problems and solutions VI International Scientific Conference Construction Mechanics, Hydraulics & Water Resources Engineering (CONMECHYDRO 2024) AIP Conf. Proc. 3286, 040038-1–040038-6; <https://doi.org/10.1063/5.0280109>
3. Тагиев М.М. История развития ирригации Самаркандского оазиса (1917-1970 гг.). Автореф. дис. ... канд. ист. наук. Ташкент, 1971. -31 с.
4. Alimov T.A. O'zbekistonda ekologik vaziyat va uni yaxshilash yo'llari. -T.: O'zbekiston SSR "Bilim" jamiyati, 1990. -15 b.
5. Обломуратов Н. Аграрная политика в Узбекистане (1970-1990 гг.). -Ташкент, "Ўзбекистон", 1993. -126 с.
6. Глазовский Н.Ф. Аральский кризис: причины, возникновения и пути выхода. Москва: Наука, 1990 г. -С.18.
7. Тагиев М.М. История развития ирригации Самаркандского оазиса (1917-1970 гг.). Автореф. дис. ... канд. ист. наук. Ташкент, 1971. -С.18.
8. Мамедов А. Ирригация и ирригаторы Узбекистана. Т.: Ўзбекистон, 1971. -С.118.
9. Lyubovskiy I. Qo'lbola dengiz // O'zbekiston qishloq xo'jaligi, 1991 y. №7. -B.56.
10. Тагиев М.М. История развития ирригации Самаркандского оазиса (1917-1970 гг.). Автореф. дис. ... канд. ист. наук. Ташкент, 1971. -С.25.
11. Lyubovskiy I. Qo'lbola dengiz // O'zbekiston qishloq xo'jaligi, 1991 y. №7. -B.56-57.
12. Тагиев М.М. История развития ирригации Самаркандского оазиса (1917-1970 гг.). Автореф. дис. ... канд. ист. наук. Ташкент, 1971. -С.26.
13. Тагиев М.М. История развития ирригации Самаркандского оазиса (1917-1970 гг.). Автореф. дис. ... канд. ист. наук. Ташкент, 1971. -С.29-30.
14. O'MA. R-2483-fond, 1-ro'xat, 886-yig'ma jild, 37-varaq.

15. O'MA. R-2483-fond, 1-ro'xhat, 886-yig'ma jild, 39-varaq.
16. Naimov N., Eshonov A. Qardoshlik inshooti // Guliston, 1975. №7. -B.1.
17. Тагиев М.М. История развития ирригации Самаркандского оазиса (1917-1970 гг.). Автореф. дис. ... канд. ист. наук. Ташкент, 1971. -С.30.
18. Обломуратов Н. Аграрная политика в Узбекистане (1970-1990 гг.). -Ташкент, "Ўзбекистон", 1993. -С.67.
19. Мамедов А. Ирригация и ирригаторы Узбекистана. Т.: Ўзбекистон, 1971. -С.96-97.
20. Вухоро viloyati davlat arxivi. 1228-fond, 1-ro'xhat, 2-yig'ma jild, 262-varaq.
21. Мамедов А. Ирригация и ирригаторы Узбекистана. Т.: Ўзбекистон, 1971. -С.97-98.
22. Вухоро viloyati davlat arxivi. 1111-S-fond, 1-ro'xhat, 226-yig'ma jild, 58-varaq.
23. Вухоро viloyati davlat arxivi. 1111-S-fond, 1-ro'xhat, 299-yig'ma jild, 12-varaq.
24. Мамедов А. Ирригация и ирригаторы Узбекистана. Т.: Ўзбекистон, 1971. -С.97-98.
25. Мамедов А. Ирригация и ирригаторы Узбекистана. Т.: Ўзбекистон, 1971. -С.189.
26. Вухоро viloyati davlat arxivi. 1130-fond, 3-ro'xhat, 337-yig'ma jild, 2-varaq.
27. Глазовский Н.Ф. Аральский кризис: причины, возникновения и пути выхода. Москва: Наука, 1990 г. – С.15.
28. Мамедов А. Ирригация и ирригаторы Узбекистана. Т.: Ўзбекистон, 1971. -С.81.
29. Мамедов А. Ирригация и ирригаторы Узбекистана. Т.: Ўзбекистон, 1971. -С.97-98.
30. Вухоро viloyati davlat arxivi. 1184-fond, 1-ro'xhat, 246-yig'ma jild, 69-varaq.
31. Вухоро viloyati davlat arxivi. 1184-fond, 1-ro'xhat, 642-yig'ma jild, 13-varaq.
32. Navoiy viloyati davlat arxivi. S-1-fond, 1-ro'xhat, 361-yig'ma jild, 43-44-varaqlar.
33. Вухоро viloyati davlat arxivi. 1184-fond, 1-ro'xhat, 418-yig'ma jild, 76-varaq.
34. Navoiy viloyati davlat arxivi. S-38-fond, 1-ro'xhat, 51-yig'ma jild, 8-varaq.
35. Мухамедов А.В. В поисках резерва оросительной воды//Ўзбекистон коммунисти,1990.№3. -С.55.
36. O'MA. R-2483-fond, 1-ro'xhat, 3486-yig'ma jild, 60-varaq.
37. O'MA. R-2483-fond, 1-ro'xhat, 3454-yig'ma jild, 10-varaq.
38. Вухоро viloyati davlat arxivi. 1023-fond, 4-ro'xhat, 1772-yig'ma jild, 87-varaq.
39. O'MA. M-69-fond, 1-ro'xhat, 86-yig'ma jild, 160-varaq.
40. O'MA. M-69-fond, 1-ro'xhat, 86-yig'ma jild, 163-varaq.
41. Ravshanov A. Suv qadri: qadim va hozirda // Fan va turmush, 1990. №5. -B.13.
42. Резниченко Г. Мы знаем, что ныне лежат на весах // Новый мир, Москва: 1989.№5-С.185.
43. O'MA. M-69-fond, 1-ro'xhat, 86-yig'ma jild, 160-varaq.
44. Muhammadjonov M. Suv omborlari va ekologiya // Sharq yulduzi, 1989 y. №10. -B.138.
45. O'MA. R-2742-fond, 1-ro'xhat, 40-yig'ma jild, 87-varaq.
46. O'MA. R-2742-fond, 1-ro'xhat, 92-yig'ma jild, 177-varaq.
47. O'MA. R-2742-fond, 1-ro'xhat, 98-yig'ma jild, 82-varaq.
48. O'MA. R-2742-fond, 1-ro'xhat, 97-yig'ma jild, 32-varaq.
49. O'MA. R-2742-fond, 1-ro'xhat, 92-yig'ma jild, 97-varaq.
50. Hojiboyev N., Kamolov L. O'zbekistonning yer osti suvlaridan ratsional foydalanish. -T.: O'zbekiston, 1978. -B.24.
51. Шадиметов Ю. Научно-технический прогресс, образ жизни и здоровье. - Т.: Узбекистан, 1987. -С.67.
52. Navoiy viloyati davlat arxivi. S-1-fond, 1-ro'xhat, 49-yig'ma jild, 2-varaq.
53. O'MA. R-2742-fond, 1-ro'xhat, 213-yig'ma jild, 316-varaq.
54. Мухамеджанов М.В., Шарафутдинова Ф.Х. Охрана и рациональное использование природных ресурсов Узбекистана. Ташкент: Фан, 1989. -С.109.
55. Ravshanov A. Suv qadri: qadim va hozirda // Fan va turmush, 1990. №5. -B.13.
56. Alibekov L. Suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan ratsional foydalanish. -T.: O'zbekiston SSR "Bilim" jamiyati, 1983. -B.13.